



20 26 y. « 20 ». 01 № 73/130

MA'LUMOTNOMA

(“Uzbekistan Airways” AJ tomonidan 2025 yilning yakuni bo'yicha xodimlarini korruptsiyaga qarshi samarali kurashish va saviyasini oshirish maqsadida malakalarini oshirilganligi to'g'risidagi)

2025 yilning yakuni bo'yicha “Uzbekistan Airways” AJ va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlarda korruptsiyaviy xavf-xatarlarni va manfaatlar to'qnashuvini barvaqt aniqlash va ularga qarshi samarali kurashish bo'yicha huquqiy bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish maqsadida 56 nafarga yaqin korruptsiyaga qarshi ichki nazorat komplayens xodimlari va korruptsiyaga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlardagi xodimlar respublikamizning bir qator nufuzli malaka oshirish markazlarida o'qitildi.

Jumladan:

Joriy yilning fevral oyida O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi hamda O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish Agentligi bilan o'quv amaliy seminarlar o'tkazilgan. Jamiyat tomonidan jami 5 nafar xodimlar qatnashgan.

2025 yil 11 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik suyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ximoya qilish bo'yicha vakil hamda BMTning narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurashish mintaqaviy bo'limi tomonidan “Sentralno-Aziatskoy seti dobroportyadochnosti biznesa” (SAVIN) mavzusida onlayn o'quv-seminari bo'lib o'tgan, seminarda 3 nafar xodimlari ishtiroki ta'minlangan.

Shuningdek 2025 yil 1 aprel kuni UzAssets AJ hamda Buyuk Britaniya Tashqi ishlar vazirligi ko'magida “Buyuk Britaniya tomonidan qo'llanilgan sanksiyalarni tushunish va to'g'ri qo'llash” mavzusida onlayn o'quv-seminarlar o'tkazilgan va jami 7 nafar ichki nazorat va boshqa tuzilmalar xodimlari ishtirok ta'minlangan.

Joriy yilning 1 iyul kunidan 4 iyul kuniga qadar “CERT akademiyasida” ISO 37001:2025 standart bo'yicha maxsus o'quv kursi o'tkazilgan. Maxsus o'quv kursida “Uzbekistan Airways” AJ va uning tarkibiy bo'linmalaridan jami 15 kishi ishtiroki etilgan. Maxsus o'quv kursida odob-ahloq va korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida malakalari oshirilgan. Maxsus o'quv kursi yakuniga kadar jami 15 kishi ISO 37001:2025 standart bo'yicha sertifikatlariga ega bo'lishgan.

Shuningdek, joriy yilning sentyabr va dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida korruptsiyaviy xavfi yuqori darajada bo'lgan lavozimlarni bajaruvchi bo'linmalar uchun maxsus onlayn o'quv kurslari o'tkazilgan. Maxsus o'quv kursida “Uzbekistan Airways” AJ va uning tarkibiy bo'linmalaridan jami 26 kishini ishtirok ta'minlangan. Maxsus o'quv kursi yakunida 26 kishi sertifikatlariga ega bo'lishgan.

**Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat
xizmati boshlig'i**

R.R. Abdullin